

84
7-43

Gulandom TOG'AYEVA

MEN IZLAGAN KEMA

She'rlar



Книга должна быть
возвращена не позже
указанного здесь срока

Количество предыдущих
выдач _____

--	--


24.04.2017

84
7-48

Gulandom TOG'AYEVA

МЕН ИЗЛАГАН КЕМА

She'rlar



1586

Toshkent - 2016

OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'VILI VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI
1-FILIALI

OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'VILI VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

UO'K: 821.512.133-1
K BK: 84(50)7
T 73

Tog'ayeva, Gulandom
Men izlagan kema: bolalar uchun she'rlar / G. Tog'ayeva. – Toshkent:
Yurist-media markazi, 2016. – 48 b.

ISBN 978-9943-4338-8-5

UO'K: 822.512.133-1
K BK: 84 (50)7

Gulandom Tog'ayeva O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, yetuk shoiri. Uning "Chaqmoq xo'rsiniqlari" va "Muhabbat asri" she'riy to'plamlari nazm ixlosmandlariga yaxshi tanish. Mazkur kitob esa shoiraning bolalar uchun yozgan she'rlaridan tuzilgan.

She'riyat bilan oshno bo'lish davomida murg'ak bola qalbida ezgu fikr va go'zallik urug'larini olib, barg yozishidan umidvorumiz.

Taqrizchi va mas'ul muharrir:
Abdumurod TILAVOV,
filologiya fanlari nomzodi

ISBN 978-9943-4338-8-5

© "Yurist-media markazi" nashriyoti,
2016-yil

SHUNDAY YASHA

O'z xalqingning timsoli bo'l,
Bo'l Xalqingga rivoyat,
Eslaganlar eslasinlar,
Aylab she'ru hikoyat.

Yasha, qo'yib joy-joyiga,
O'zbeginning hurmatin.
Yo'qmi shohni izzat qilgan
Chumolicha himmating.

Bu umr vaqti – musavvit,
Go'dakdan yaratar u chol.
Seni Elga tanituvchi
Lahzani to'xtatib qoli!

O'z xalqingning timsoli bo'l,
Bo'l Xalqingga rivoyat.
Shunday yasha, sen haqingda
Aylasinlar hikoyat...



VATAN TA'RIFIDA

Ota – yigitlarning tojidagi dur,
Qizlar kulgisida yongan baxt-shuur, –
Yurti onaga ham tenglaymiz, ammo
Ota-yu ona ham El bilan masrur.

Quyoshday poyingga botsam ham bir kun,
Diydoringga aslo ko'zim to'ymaydi.
Yig'lar besh askim xoki Boburning
Shukur qilmaganlar buni bilmaydi.

Yaqinsiz, do'st-yorsiz ko'nikmoq mumkin,
Xalqsiz sevinmoqqa ko'ngil to'lmaydi.
Ajab, qanday Elisiz yasamoq mumkin, –
Buni bilmaganlar seni bilmaydi.

Vohacha o'tli-yu, vodiycha shirin,
Xorazmcha cho'g' so'z dilda yashirin:
"Yuragimning oltin zanjiri sansan,
Vatanlar ichinda anjiri sansan!" ...



TOSHKENTIM

Kentim uzra yog'du sochar oqshomlari –
Jahonga yuz tutgan Xasti imomlari,
Saxiy qo'llar bunyod etgan binolari,
Asrlarga qo'l beradi donolari.

Bu shaharda baraka va baxt bor gulgun,
Har bir qarich tuprog'ida oroyish bor,
Yangi-yangi ko'priklarga nazar solgin,
Axir, undan odamlarga osoyish bor.

Orzularim, tafakkurim kulgan kentim,
Har yurakning daryolari tutashgan joy.
Ilm-u fanga beshik misol bo'lgan kentim,
Axir, undan odamlarga osoyish bor.

O'zbek elim yuragisan, azim shahrim,
Biz-ku sening yo'llaringda kichik karvon.
Pokiza dil, halol mehnat tongi bilan,
Seni bugun qarshilaydi ro'yi jahon!

Kezsang ul ko'chalarin dardingga darmon shahrim,
Ko'rganlar uchun bir baxt, kimgadir armon shahrim.
Eli gul, tuprog'i dur, tilagi osmon shahrim,
Asiringman bir umr, poyingdaman Toshkentim!

DILNOMA

Mendan ko'pning umidi bor,
Menda ko'pning shiddati.
Keldi endi shu tuproqqa,
Loyiq bo'lish muddati.

She'rim, mendan vafo ko'rmay,
Vafo qilgan hamdamim.
Dilni yoqgan bevaqt qordan
Asrayotgan gulxanim.

Garchi dilda ochilmagan
Lolalarning dog'i bor.
Lekin har bir shoiriga
Elining ardog'i bor.

Elim, seni duo qilay,
Sovimasdan qo'l katti,
Yulduzlarni isitadi,
Senga mehrim, dil tatti.

Ko'zlaringning tub-tubida
Cho'lponlarning hasrati,
Baxt-la sen et-u tirnoqdir,
Bo'lmas ani ajratib.

Menda ko'pning umidi bor,
Menda ko'pning shiddati,
Nasib etsa bas shu elga
Loyiq bo'lish muddati...

ORZULAR

Oh orzular, orzular,
Rayhommisiz, gulmisiz?
Yoki yashil bog'imda
Sayroqi bulbulmisiz?

Xayolimga kelasiz,
Ayni xursand chog'imda.
Shabadaday yelasiz
Mening go'zal bog'imda.
Men ulg'ayib tog'larni
Kiftlarimda ko'targum.
Kelajakka talpinib,
Quyosh yo'lidan borgum.
Yuksak orzular bilan
Yashayman men olamda.
Orzu bilan yashamoq
Katta baxt-ku olamda!



BAXTIYORMAN

Vatan, baxtli qizingman,
Qalbim – quyoshga makon.
Yuzda mehrim tovlanar
Seni eslagan zamon.
Baxtiyorman bag'ringda
Ko'nglim doim guldayin.
Shuur olib oftobdan
Ulg'ayaman kun sayin.

SAVOL

Osmondagi sirli yulduzlar
Aytarmikan kelajagimni?
Gul Vatanni yana ham gulgun
Bog' misoli etajagimni.
Oy-Zuhroga men etib parvoz,
Gul-g'unchalar taqib qaytaman.
Lablarimga qo'nib tabassum,
"Tinchlik" so'zin jo'shib aytaman.
Osmondagi sirli yulduzlar
Aytarmikan kelajagimni?...

BIR GO'DAK TILAGI

...Zebo yurtning parqut tunida
Yulduzlarga oshno bo'lurman.
Gul yurtimning qutlug' kunida
Yangraguvchi navo bo'lurman.
Sanam tonglar kutadi meni,
Gul vodiylar quchib qarshilar.
"Tinchlik" desam jo'sh urib qonim,
Tarafimda barcha yaxshilar.
Orzum ko'pdir ro'yi jahonda,
Zamin sahnin chaman qilgum bor.
Shu elimga halol yordamchi,
Yurtga a'lo farzand bo'lgum bor.



ONAM UCHUN GULLAR

Sehrladi o'ziga bog'lar,
Xush bo'y berdi osud osmonga.
Onam uchun gullar teray deb
Yo'lni soldim o'shal tomonga.

Asil bahor shu yerda ekan,
Gullar kular tashlashib xandon.
Samolarga quvonch ulashib,
Jilmayadi mitti gul, rayhon.

Quchog'imni gulga to'ldirdim,
Sabrim yo'qdir ortiq kutgali.
So'ng yugurdim keng may sazordan,
Turnalardan o'zib ketgali.

AFSUS

Sobir tursa ertalab,
Qor yog'ibdi xo'p elab.
Ko'rib birdan zo'r "fokus",
Tamsanib dedi: "Afsus...

Qarang, tomda sumalak,
Qish boboming sovg'asi.
Konfetlari yaxshi-ku,
Yomon tomoq g'ovg'asi".

YER KO'RPASI

- Nechun qishda qor yog'ar,
O'zing ayt-chi, Sanobar,
- Qiziqmisiz, qor yer-chun,
Ko'rp bilan barobar.

ONADEK MUQADDAS

Ey mening sevikli, feruza yurtim,
Ezgu hislarimga hamohang, oshno.
Bezavol, sof qalbing dunyodan azim,
Tinchlik maslagiga hayotdek shaydo.

Tinchlik deb basharning tilagin aytur,
Bag'ringga zeb bergan bog'lar, dalalar.
Samoni to'ldirar tinchlik deb masrur,
Ko'ringga ko'rk qo'shgan alvon lolalar.

Ey dildora yurtim, tilaging qutlug',
Onadek muqaddas, zebodir bu dam.
Shundayin musaffo, sof tilak bilan
Oyoqqa turmoqda zalvorli olam.

Hey yurtim, tinchlikka kamarbastasan,
Sen yangi umrning cho'g'i-qalovi.
Sendayin sanam yurt bor ekan bunda,
Yoqilmas hech qachon urush olovi!

TINCHLIK UCHUN OVOZ

Talotunga o'chsiz, bilaman, lekin,
Sovuq qo'lingizni torting dunyodan.
Qo'ying, mash'um urush solmasin sharpa,
Ona tarix to'ygan jabr-u jafodan.

Omonsiz janglarda miltiq quchoqlab,
Abadiy uyquga ketganlar ozmi?
Bezavol g'unchani bo'g'ib, pichoqlab,
Vabodek boshiga yetganlar ozmi?

Ey qalbim, ingrama, ingrama, yetar,
Yetar mungli dunyo chekkan nolalar.
Ofob qarshilagan yashil vodiya,
Mozor emas, unsin alvon lolalar.

O, tilsiz cho'qilar, tog'lar, ber ovoz,
Gul hayot so'lishni ko'rmasin aslo.
Bilsin go'l janoblari, bu hayotiy soz,
Shu bahor hurmati topmas intihos.

Men Inson – zaminning ezgu farzandi,
Kelajak chehrasin ravshan ko'rurman.
Sayyoramning zumrad tinchligi uchun
Minbardan sarbaland ovoz berurman!

MEN IZLAGAN KEMA

Lermontovni o'qib

Ko'm-ko'k, zumrad dengiz ustida
Yelmoqdaman shabboda misol.
Oq kemani topmoq shashtida
O'z-o'zinga berarman savol:

– Qani mening izlagan kemam
Loyiqmami uni izlashga,
O'rgatganni Vatanim-onam,
Hurmatlashga, uni "siz"lashga?

Ha, bilmayman, qandaydir rangi,
Bilmayman, u kimning ilhomi.
Ammo ma'lum menga ne ishi,
Nima uning diltirabo nomi.

"Ezgulik" deb atarlar uni,
O'sha mening izlagan kemam.
Ezgulik – bu baxtiyor kunim,
Izlayapman, salmog'im o'ktam.

Har qadamim misoli chaqin,
Olam bo'ylab taralar mag'rur.
O'z kemamni topmog'im yaqin,
Umid berar she'riyat – shuuri!

BILOLNING SAVOLI

Bobomlarga der mening
Shirin til ukam Bilol.

– Qulogʻim ogʻit, deysiz,
Bobo, u necha kilo?


KAMALAK

Injulani koʻkda kamalak,
Sehrlaydi jajji dilimni.

Quvonchidan hayqirar falak,
Sevintirib tanti dilimni.

Yuragimga yellar kiradi,
Shoʻx hislarim goʻyo bir vujud.
Eh tengdoshim, bilsang qalbim va
Kamalakda uygʻunlik mavjud.

Sendan oltin yoshlik ufurar,
Senda yashar olov yuragim.
Qoʻlim rulni tinchlikka burar,
Dil bogʻlayver, shoʻx kamalagim!



ILK QOʻNGʻIROQ

Sentyabr ruxsor ochdi elimda,
Kuz ogʻa-yey, tutdi ilm xumori.
Ilk qoʻngʻiroq jaranglari dilimga,
Quvonch berdi yechib shodlik tumorin.

Xaytlashdik, lager bilan, yoz bilan,
Biz-la toʻkdi maktab yana yogʻdular.
Yigʻilishdik shoʻx-shodon, diltroz bilan,
Labda yondi shuʻla sochib kulgular.

Har yurakning dli toriga ulardi,
Qoʻshiqchining "Oʻzbekim", ham "Gulnoz"i.
Bir umrga koʻngillarga joylandi,
Qoʻngʻiroqning sehrga boy ovozi.

OQIBAT

– Oymomo, hoy, oymomo,
Nega bu kech yolgʻizsan?
Atrofingda yoʻq darak
Inju sochar yulduzdan.

– Eng yorugʻman, deb rosa
Urishgandim, baayni.
Xafa boʻlib yulduzlar
Ketib qoldi, ogʻaynil...

SUHBAT

- Tog'larim, hey tog'larim,
Nega ko'kingiz xira?
– Ey, o'rtog, bu gapingni
Cho'pon akangdan so'ra!

MEHMONDA

- Soching qani, – deb ammam
Norni so'roqqa soldi.
U-chi bo'lib xotirjam,
Der: "Sochim uyda qoldi..."

OLMA NIMA DEYDI?

Hosilimni shoxlarim
Ko'tarolmay dol bo'ldi.
Tirgak qo'yish o'rniga
Fagat "yul", "ol-ol" bo'ldi.

Nima bo'ldi, o'zi, a,
Taqdirim buncha achchiq?
Yashash qiyin ekan-da,
Bo'lmasa bir suyanchiq...

JITANIM NIMA DEYDI?

– Opa, nima qilasiz,
Shuncha kitob-dafarni.
O'ynasangiz bo'lmasmi
Bundan ko'ra kaptarni.

Menga bering (bilmabman,
shuncha kitob borligin).
Makalaturaga berib
Olay "Maqto'v Yorlig'i"...

SOG'LOM BOLAJON

1

Men sho'x va sog'lom bola,
Ruhimday sog'lom tanam.
O'ynab-o'ynab terlasam,
Cho'miltiradi onam.

Har kuni dushga tushib,
Mikroblarni quvaman.
Dil ravshan, otim Ravshan,
Toza suvni sevaman.

2

O'zim kichik bo'lsam ham
Eplayman har bir ishni.

Unutmayman har safar
Qo'llarimni yuvishni.

Sovun bilan ishqalab,
Yuvib yigirma sekund,
Sochiq bilan artaman,
Qolmas ko'nglimda tugun.

3

Qo'l yuvishning odobin
O'rganishimiz kerak.
Avval iliq suv bilan
Kafni ishqalash kerak.

Toza bo'lsin, sovun-la,
Barmoq, tirnoq orasi.
Oppoq qo'llarga barcha
Havas bilan qarasin.

4

Atrofdaqi tabiat,
Jonivorlar do'stimiz.
Ular bilan o'ynasak
So'ng qo'l yuvish – burchimiz.

Har turli mikroblarga
Keltiramiz biz qiron.
O'sib-o'sib bo'lamiz,
Bir kun botir, pahlavon.

5

Men har kun tishim yuvib.
So'ng uxlashga yotaman.
Erinchoq qo'g'irchoq'im
Tish yuvishin kutaman.

Tishlaring dur-u gavhar,
Marvaridday nur sochsin.
Qo'g'irchoq'imday "voy" deb,
Tish do'xtirga bormasin.

6

Hovlida qum o'ynasam,
Kim o'zarga yugursam,
Oyoqlarim ish berar,
Gilamda salta tursam.

Lekin oyog uchun ham
Kerak bo'lar parvarish.
Uni har kasallikdan
Asraydi tez-tez yuvish.

7

Qo'ng'iroqday sochim bor
Shamollarda o'ynaydi.
Sochimning rangi toza,
Barcha garab to'ymaydi.

Ko'p oftobda yurmagin,
Changda o'ynab turmagin.

Tarog'ing ham pok bo'lsin,
Shampuning hamroh bo'lsin.

8

Kiyim kiysang toza kiy,
Ovqat yuqi bo'lmasin.
Ko'ylagi dog' bo'пти deb
O'rtoqlaring kulmasin.

Ob-havoga mosini
Kiyib doim ol orom.
Yumshoq, mayin ko'ylakda,
Bo'larsan tinch va sog'lom.

9

Poyafzal ham munosib
Faslga loyiq bo'lsin.
Charm bo'lsa yaxshiroq
Barisi qulay kelsin.

Har qadaming bosganda,
Botirning izi bo'lsin.
"O'zi pok-u so'zi pok",
Navoiy so'zi bo'lsin.

10

Ichki kiyim pokligi
Fe'l-atvorning oynasi.
O'yjoning uni yuvib,
Yaxshilab dazmollasin.

Paxta, ipak toladan
Bo'lgan matoni tanla.
Sog'lom bo'layin desang,
So'zinni dildan angla.

11

Tiniqib uxlaganda
Raso bo'ladi badan.
Bo'lsa o'rin to'shagi
Yumshoq-mayin paxtadan.

8-10 soat uxla.

Shirin tushlar ko'rib yot.
Faqat undan oldin sen
Tishlaringni yuvgin bot.

12

O'yjonim har kuni,
Xonamni poklaydilar.
Derzamni ham artib
Ko'nglimni chog'laydilar.

Men ham kichik yordamchi,
Toza, yorug' uyimiz.
Bizlarni alqaydilar
Duogo'yim – buvimiz.

13

Qo'g'irchoq'im ochofat,
Ovqat bersam to'ymaydi.

Murabbo, sut, sho'rvani
Ko'p yeyishin qo'ymaydi.

Oz-oz va tez-tez yesin,
Isrofga yo'l qo'ymasini,
Aqli, dono bo'lsin,
Shunday bola bor bo'lsin.

14

Bizning bog'cha, gul bog'cha,
Barcha bola yayrasin.
Quvnashim bejiz emas,
Bu polvonlar davrasi.

To'p suramiz o'tloqda,
Bel boylashib so'qmoqda,
Kurash o'yin tushamiz.
Har birimiz chaqmoqday.

Qizlar Barchin bo'ladi,
Alpomish ham yo'q emas.
Shijoat, botirlikda
Har ne sinov cho'l emas.

Chaqqon, epchil barchamiz,
Polvonjonlar davrasi.
Kuylaringni baland chal,
Sog'lom bola o'ynasin.

SO'ROQ

Rassom bo'yog'idan rang tanla, do'stim,
Oldingda chaman bog', gullar tanlagin.
Dunyo kitobidan fan tanla, do'stim,
Ogni ham qorani yaxshi anglagin.

Keyin hisoblayver yo'qolmay-san hech,
Tumanlar ichida farqli, farqlisan.
Keyin hisoblayver o'zni, emas kech,
Insondek yashashga haqli, haqlisan.

Tez bo'l, tezroq bo'lg'in do'stoni aziz,
Tugamasin baxtning nurli o'rovi.
Yo'q-yo'q, bu meningmas, qadri ko'p laziz,
Lahzasi olindan Vaqtning so'rovil
Shoshil... Tezroq bo'lg'il, do'stoni aziz...

INTIZORLIK

Tunlar o'tar zo'rg'a qynalib,
Tushimga ham tonglar kiradi.
Sochlaringa ipsiz boylanib
Mening bilan bahor yuradi!

Qayga borsam shirin bir shivir,
Borar dunyo tamom yuksalib.
Ko'zlarimda Haqiqat balqir,
Kiprigimda gilam to'shalib.

Oppog orzum – ko'rgim keladi
Manglayimdan oqgan terimini.
Hovuch-hovuch bergim keladi,
Changaganlar ichsin she'rimil...

YURAKDAGI QO'R

Tunlar tund uyqumni o'g'irlaydi she'r,
Ashorsiz shonlarni uncha suymayman.
O'tdanmas, zavqdandir yurakdagi qo'r,
Shoir yulduzlarga boqib to'ymayman.

Tegramda tirik ruh – xayollar faqat,
His qilib turibman harakatini.
Cho'ponoy, Hulkarlar aytar malohat
Iqbol qo'shig'imning naqoratini...

Ammo samovotda savol kam beso'z,
Ming afsus, yerda to'ng barcha olamlar.
Til topib, dil topib yulduzga hanuz
Nechun tushunmaymiz o'zni, odamlar?!

SHE'R ISYONI

Tog'lar hukmidagi ko'kda oy suzar,
O'tkir jilvasidan ko'zim o'ynaydi.
Oy-ku bema'loldir, dilda bir guzar –
She'r isyoni boshlab meni qiynaydi.

Oh, qiynoq, tilaklar jamiljami ul,
Unda bir bushyor ruh, yuraklar ohi.
Gul bargida yoziq alamlar butkul,
Shirin iztiroblar mas'um nigohi.

Unda vash – qo'lda mehnat o'rog'i,
"Toy-toy" odimlagan erka yoshligim.
Savolim: qaydadir jasorat bog'i,
Qaydadir She'riyat – mohi qoshligim...

Umr-ku bebaho, umr-ku bir gani,
Fursat tahrin esa sindirib bo'lmaz.
Faqat Vatanninga bo'lib bir suyanch,
Uni kashf qilib ulgurolsam bas...

VATAN MADHI

So'lim quchoq'ingdan izlayman qo'shiq,
Qalbi navo bo'lgan mening yuragim.
So'zingga jo'r bo'lay, dil-kuyim qo'shib,
"Bog'i eram"lardan alo tog'larim.

Siyangda neki bor she'r yozay atab,
Atab qalbni beray bog'-rog'laringga.
Mayliga, umrimni baxshida etay,
Bag'ringda kechgan har on, chog'laringga.

Onajon, Vatanim, shoira qizing,
Dilbar navolaring og'ushida mast.
Jigargo'shang sening, gavhari ko'zing,
Tinchlik so'zlariga undosh, kamarbast.
Men latif ogshomdan ashor izlasam,
Yulduzlar ko'rsatur menga jamolin.
Nurlandim tovusdek shodlik bog'ida
Ko'rib inju sochar o'lkam kamolin...

NAQL

Kengliklarga qo'ngan yasharish,
Bahor oshyon yuraklarga ham.
Bu tog'larga afsona – qarish,
Gul ochish bor tilaklarda ham.
Bunda qalb-chun ertak sarhadlar,
Bilmam, ong gay manzilda to'xtar?
Har yil bahor bir naql yodlar:
"Iqbolingni mehnatdan axtar!"...

HAMYURTLAR

O'zbekiston qalb sozi – paxtam,
Chanog'ingda Vatan ko'rinar,
Bunda rohat, halovat o'ktam,
Boz ustiga sho'x-sha'n ko'rinar.

Bunda baxtning yelkasi butun,
Bunda tole ravshan begumon.
Oq rangiga koinot matnun,
Bulbul gulga oshiqliksimon,
Tarifingga o'lan tasadduq,
She'r va g'azal bilan tasadduq,
Oy va yulduz, zamon tasadduq,
Tinchlik qushi chunon tasadduq.

Xirmoningga xirmon, paxtajon,
Kuylaringga ko'nglim payvanddir.
Faxrlansak arzir bir jahon,
Ikkimiz ham bir yurt farzandi.

TOG'IMGA

Sen menga o'rgatding sevishti Vatan,
Navogo'y sadoyning qo'shig'im bo'ldi.
Bag'ri keng, nuroniy Ezgulik, zotan
Mening qalb maqsadim, beshigim bo'ldi.

Shamol to'lginiga, quyun qargiga,
Asriy to'fonlarga pisandsiz tog'im.
Yomonlar oldida vigor ber menga,
O'jizlik bilmasin do'st-u o'rtog'im!

ROZ

Cho'g'li yuragimning mezboni o'zing,
Nafis she'riyatning oltin nag'masi.
Sen qalbm shamsisan, issiq yulduzing,
Haqiqat dengizin shonli kemasi.

Baxt quchib yonaman qahrabo o'tda,
Ki men ham Insonman, yorug' yulduzim.
Istayman, har dilni oshyona et-da,
Dunyoni chaman qil shoir Ezgulik!

AZIM DARAXT

Olmos qatralardan yig'ilgan shodlik
Tilda yangrar bo'lib qahqaha, bayot.
Har lahzang, har oning bunchalar totlik,
Bunchalar dilbarsan, dilbarsan, hayot!

Ko'zlarim nur sochar Vatanim ko'rib,
Ezgulik, Go'zallik unda jamuljam.
Jismimda yugurgan qonlardek ko'pchib
Mehnatga tavof-la yashaydi o'lkam.

Men so'lim tog'larning cho'qqilaridan,
Latofat yashargan diyorni ko'rdim.
Umidi, orzusi kamolot quchgan,
Jasorat yashagan diyorni ko'rdim.

Gulsevar Vatanning totli qo'ynida
Intilib, oshufta yashayman baxtga.
Bir umr tinchlig-u ro'shnolik bo'lsin,
Deyar Hayot degan azim daraxtga!..

KOINOT

Hududsiz kengliklar bag'riga uchdim,
Ezgulik bog'idan gullar tergali.
Yulduzlar, men sizni o'ngimda quchdim,
Kumush ummonlarga bag'rim bergali.

Galaktikalardan ranglar izlayman,
Quyosh tasviriga qilnam qanoat.
Orzular ufqida qo'shiq so'zlayman,
Xatlaring o'qisam, deyman Koinot!

SAMO

Fazoga xayolchan qarab turarman,
Umid ayvonida, shu'la qo'limda.
Asrlar kechmishin xayol surarman,
Ming bir tugunlarni yechmoq yo'limda.

Kutmoqda dovonlar bu kun betogat,
Avlodlar oldiga qo'yib savolin.
Yurakka mezbondir mangu saodat,
Somon yo'llarida qoldi xayolim...

ISTAK

G'am mevasi to'kilmasin yo'llaringda,
Go'dak ko'ray kafti issiq qo'llaringda,
Shoir ko'klam to'yrlaringda soqiy bo'lsin,
Tinchlik tilab yurishlaring boqiy bo'lsin,
Sanam yurtlar sanog'ida sanobar yurt,
Har maysasi baxt guliga barobar yurt!..

UYG'OQ QALB

Shamim oldi qo'limdan Zevs,
Prometeydin o'ch oldi go'yo.
Tilannadim, cho'kmadim hech tiz,
Tortsa hamki bag'riga ro'yo.

Qo'ydim boshim muzdek tunlarga,
Yolg'izlatdi kunduzlar meni.
Oshiq bo'ldim, kutib, tonglarga,
Holsizlatdi yulduzlar meni.

Ayt-chi, bag'rim, to'g'ri til bilan,
Gaplarimdan sira o'ksimay.
Ortimdagi boqiy el bilan
Qanday sig'dim kichik ko'ksingga?!

YUKSALISH

Quyosh hamon yerga egilar,
Sharqdan egilar-u,
G'arbdan egilar,
Egilgani sayin U
Yuksalaverar!

BAHORIM

*Olam qachon yaratilganidan qat'iy nazar, yilning bahor
faslida yaratilganiga shubha yo'q. Aynan bahorda hamma
narsa ilk marta kurtak ochib gullagan va meva tukkan.*

Epikur, Yunon donishmandi

Kelinlarning yuzidagi xol kabi,
Mohgullarning so'zidagi bol kabi,
Ariqlarning bo'yidagi tol kabi,
Bunchalar go'zallik senda, bahorim!

Tunlar momom aytgan doston misoli,
Iqbol shahmin izlar inson misoli,
Guli Ahmar unar bo'ston misoli,
Bunchalar go'zallik senda, bahorim!

Ipakdek qo'shiqlar yonib oqadir,
Ravzalar ufqida quyosh boqadir,
Baxt shamsi yurakda ilhom yoqadir,
Bunchalar go'zallik senda, bahorim!

MASLAK

Koinot chegarasiz, demak uning intihosi yo'q.
Epikur

Yo'q, men tug'ilmadim ko'hna zaminda
Yantogning ustida azon aytgali.
Balki mehmon bo'lib Quyosh tomonda
Yana yurt sog'inib ortga qaytgali.

Magar Insonnamm, avlod Sinoga,
Ulug'bek yulduzin izlashim kerak.
Nurti parvoz qilib olis samoga
Kelajak tilida so'zlashim kerak.

Odamlar, tokaydir, urush, qabohat,
Kim u hayotseymas, qaysi dog'uli?
Axir qanday yaxshi elga sadoqat,
Tinchlikda she'r yozmoq qanday yog'duli!

Yo'q, men tug'ilmadim ko'hna zaminda
Yantogning ustida azon aytgali.
Balki mehmon bo'lib Quyosh tomonda
Yana yurt sog'inib ortga qaytgali!..



BURCH

Barcha-barcha
G'am o'tini
Ko'taradim
Yurtimning,
Dard bozori
Bo'lsa edi,
Sotmas edim
Dardimni!

TINCHLIKKA NOMA

Tili bo'lsa aytsin urush neligin,
Mardona Brestning g'isht devorlari.
Nahot ko'taramiz dunyo xo'rligin,
Ketmasin yurakdan jang g'uborlari.

Buxenvald, Xatinda tirildimi she'r,
Yetimdek bo'zlaydi bir chetda qalam.
Zamin Tinchligiga qayta-qayta der:
"Boshing toshdan bo'lsin, suyukli bolam!"

ONAMGA BAYRAM TABRIGI

Quyoshdek jilmaysang bugun yarashar,
Lobar onajonim, kuyinchakkinam.
Sendan nargizlar ham husn so'rashar,
Ellik yoshida ham kelinchakkinam.

Ne deb suyay seni: boshda otrobim,
Qalbi shamsiqamar, ahdi butunim.
Shoirning shohso'zi, gulim, mohlobim,
Umrim imoratin oliy ustuni.

Oynomo, Zuhroning sochini tara,
Samoga mehnun bo'l, she'rgul, sherimard.
Ochilib-sochilib tegrangga gara,
Balqimoqda shamsing – Sakizinchil marti!



TIRIKLIK

Tong. Borliq egnida zangori ko'klam,
Xayollar sochiga parqutlik qo'ngan.
Tabiat, zaminga sokinlik bog'lam,
Vujudga, saharga teranlik ingan.

O'zni anglash uchun o'zga yo'q fursat,
Subhisodiq – ilhom, saharlar – bilim.
Tandirday otashpur xulosa, holat,
Mo'min bir saxovat ekan tiriklik!

XOTIRA

Kech qolgan bahorday gohi parishon,
Gohida qahraton kabi sezarda,
Kamsuqum edingiz, dono momojon,
Mehringiz tushgandi yaxshilikzorga.

Kimlarni kuydirib, kuy berib kinga,
Ketdingiz Ayiqsoy suvidek to'lib.
Ohlarni qo'ndirib qushdek labimga
Qoldingiz xotirda boqiylik bo'lib...



BAXSHIYONA

Tog'larning xilqati Kerağa diyor,
Bag'ringda chayqalar qadim Vaxshiyor.
Ko'ksiga yulduzlar qadab injusin,
Mavjalar jayhunde tole yog'dusi.

Ishq kabi eskisan va sohiddavron,
Ishq kabi yangisan, abad navqiron.
Baxt kabi besarhad ummonsan, o'lkam
Shiroqdek barhayot, omonsan o'lkam!

Ko'nglimda sendanni imon dengizi,
To'lg'anar yaxshilik, imkon dengizi.
Entikib-entikib chalib changovuz,
Kuyga qo'shmag'izman, baxtga qo'shmag'iz.

O, tog'lar talati, Kerağa diyor,
Tinchlikka suvanchiq tiragan diyor,
Marmar qanotlaring qolay to'shida,
O'ttiz ikki tomirim senga baxshida.



BOLALIK

Ular ketdi, turnalar ketdi,
Meni yolg'iz, pinhon qoldirib.
Yuragimda nimadir yitdi,
Qoldim tamom o'zni oldirib.

Oh turnalar, qur-quroylarim,
Menga yolg'iz yo'ldosh edingiz.
Bag'irlarim, kiprik yoylarim,
Hayot-ko'lida ko'ldosh edingiz.

Ayting: nelar qildim men sizga,
Qo'shiq aytib toldirdimmikan?
To'n kiygizolmasdim hech so'zga,
Ko'nglingizni qoldirdimmikan?

Azizlarim, qayting har tugul,
Dil tutar, o't oldirib keting.
Yana bahor kelar, degan ul
Umidlarni qoldirib keting!..
Ortga qayting, turnajonlarim!..



SHE'RIYATGA

Meni suygan yelkanlarga shamol bo'l,
Alisherning duosidan yaraldim.
Umid oti o'ramoqqa r'o'mol bo'l,
Lermontovning yuragiga qaroldim.

Mayli, parqut bulutlarda uchib kel,
Yomg'ir bo'b yog', chiqsin qalbga chechaklar,
Tog'larning qor to'lg'inida ko'chib kel,
Vaxshivorga yopirilsin ertaklar.

Ko'zlaringning qarog'iga qoqildim,
Tonglaringni men uchun ham saqlagin.
Yuragingning choyshabiga yiqildim, –
Yaxshi-yomon kunlarimda yo'qlagin!...

KO'ZLAR

Bu ko'zlar, bu ko'zlar ko'p o'ychan,
Bu ko'zlar ostida Osmon bor.
Haqiqatan bu ko'zlar ko'p kuychan,
Bu ko'zlar ostida Vatan bor.

Shu osmon ostida horiqib,
Bulutlar sutini ichganman.
Atirgul bargida toriqib,
Orom, halovatdan kechganman.

Shu pastbo'y maysalar ustida
Yulduzlar umrini yashadim.
Yo'q u, deng, qachonki, do'stimdan,
Ko'zlarning g'amidan boshadim...

O'GIT

Sigilsang, kunlardan sigilma,
Sigilsang tunlardan sigilgin.
Yiqilsang, dog'lardan yiqilma,
Yiqilsang, tog'lardan yiqilgin!...

ILTJO

Ey, munis qishloqlar qarshisida tik,
Ko'zlari jovdirab turgan tog'larim.
Ulug'bek barmog'in qo'shig'i bitik,
Alpomish o'lani yurgan tog'larim.

Ko'ksingiz uzra ul jannat ko'klamini
Yulduz ham simirib qo'yolmas edi.
Tabiat oftobdan olgan ko'ylagin
Hech sizning qo'llarsiz kiyolmas edi.

Yirtilgan xatingiz ko'lankasida
Somon yo'llarining izi yo'qoldi.
Dajjol oyboltalar qarsa-qarsidan
Ming yillik archalar birdan suq oldi.

Bag'rim qonyuridan oqgan parchalar,
Muz qutbin ko'ksida erit, issig'lar,
Qaytay, buvamlarga buva archalar
Cho'pon o'chog'ida xun bo'lib yig'lar.

Ey sukut qorlari ering, bas endi
Qaqragan tog'larning tomog'in ho'llang.
O'hh! Tog'lar yonayapti, bulutlar sindi,
Turnalar saffari, Adolat yo'llang!

Sharqlik yuraginga kelgan bahorlar,
Vaxshivor ustidan aylanib o'ting!
Ertasin oq ko'rgan oppoq saharlar,
Turna saffariga boylanib o'ting!..

Ey turna saffari, oq yuzli qizlar,
O'hi! Tog'lar yonayapti, qutqaringizlar!..

EY VAQT

Ey Vaqt, oromimni qaytarib bermi,
Xalqqa uy gulicha yaqin bo'lmasam.
Bahor, gunohimni o'lib yashirma.
Charchoq'ingni chaqqan chaqin bo'lmasam.

Qoralamam bo'lib charsilloq, toza,
G'o'rangiz qizartsin she'riy saraton.
O'ying balqinishi agar yetmasa,
Yulduz olsin undan bor O'zbekiston!

YULDUZ

Tongchi yulduz, nayingizni tindirmang,
Siz yo'qdirsiz, huzurli oy qaydadir?
Sochlarimning tolasini sindirmang,
Osmon sinza yulduzga joy qaydadir?

YURT ISHQI

Tog'lar-a, men sizga vafo qilmadim,
O'ying suvlarini simirib o'sdim.
Bog'lar-a, men sizga vafo qilmadim,
Yulduz etagi-la g'amlarni to'sdim.



She'r g'uncha sanchganda
mudroq tananga,
Kiprigim soyasi tuproqqa
tushdi.
O'v!.. Menday mingini ko'rgan
ENAMGA
Ishq bilmam, nechanchi yurakka
tushdi...

NAVOIY BOBOMGA

Shundayin bir guliston yaratdingizki,
Nargizlari tirikdir – toabad soʻlmas.
Shundayin bir sheʼr – boʻston yaratdingizki,
Alla aytib moziylar uxlata bilmas...

QACHON TUGʻILADI NAVOIY, DUNYO!

Oyning tuproqlari koʻzinga tushdi,
Qorachiqdarimda oʻriklar pishdi,
Yaram ming yorilib, ming qayta shishdi,
Qachon tugʻiladi Navoiy, dunyo?!

Lutfiy ilgan chopon devorda qolib,
Iskandar qilichi olamda talash.
Xisravning etigin jon-jon deb olib,
Farhodning beshigin toptash-yakkalash,
Qachon tugʻiladi Navoiy, dunyo?!

Sochlaringga oy boʻp kirib qolsaydım,
Koʻzlaringdan shabnam sogʻib olsaydım,
Yangi Navoiyga ona boʻlsaydım,
Qachon tugʻiladi Navoiy, dunyo?!

TOʻRTLIKILAR

Taqdir, aslo sendan soʻrmasman shuhrat,
Yoki sendan boylik, tengi yoʻq, behad,
Lek sendan soʻrganim, kutganım faqat,
Qalbım uygʻoq boʻlsin abadul-abad.

Samolar qalbiga yoʻl topdi odam,
Oʻlmas daholarni berdi eliga.
Lekin-chi? Bāzida yoʻlin topolmas
Odamlar bir-birin oʻtli diliga.

Qalam yugurtmagum qogʻoz qoralab,
Bormak-chun salomat shuhrat qoshiga.
Goʻzal sheʼrlarimdan gullar saralab,
Sabab boʻlsam elning quvonch yoshiga.

Chor-atrof bezangan kelinchak misol,
Yurakda hayajon, hislar toʻlqini.
Har kurtak, har butoq topgan baxt-iqbol,
Muzaffar xalqimning umid yolgʻini.

Uzoq-uzoqlardan kelgan lochinining
Qalbidā yonadi Vatan epkini.
Shunday ekan mening zebo Vatanim,
Nechun quvonmayin, sevmayin seni!...

Hislarim, hislarim, tinch qo'ymang meni,
Dunyoning tashvishin ko'tarsin yurak.
Bir nafas tinch bo'lsa shul ko'nglim beshak,
Zamining sahnida yashash ne kerak?!

Dunyo saltanati sarhad bilmaydi,
Menga o'xshaganning yo'q son-sanog'i.
Daho chiqmasam-da bo'lsam ham mayli,
Vatan dalasida bir qizg'aldog'i!..

Hayotda kimgadir Ishonib yasha,
Nimadandir kuyib, quvonib yasha.
Bag'rim, Kimlargadir Suyuk, Kuyar bo'l,
Toza Vijdongidan ovunib yasha!



MUNDARIJA

Shunday yasha	3
Vatan ta'rifida	4
Toshkentim	5
Dilnoma	6
Orzular	7
Baxtyorman	8
Savol	8
Bir go'dak tilagi	9
Onam uchun gullar	10
Afsus	10
Yer ko'rpasi	11
Onadek muqaddas	11
Tinchlik uchun ovoz	12
Men izlagan kema	13
Bilolning savoli	14
Kamalak	14
Ilk qo'ng'iroq	15
Oqibat	15
Suhbat	16

Mehmonda	16
Olma nima deydi?	16
Jivanim nima deydi?	17
Sog'lom bolajon	17
So'roq	23
Intizorlik	23
Yurakdagi qo'r	24
She'r isyoni	24
Vatan madhi	25
Naql	26
Hamyurtlar	26
Tog'imga	27
Roz	28
Azim daraxt	28
Koinot	29
Samo	29
Istak	30
Uyg'oq qalb	30
Yuksalish	31
Bahorim	31
Maslak	32
Burch	33
Tinchlikka noma	33
Onanga bayram tabrigi	34
Tiriklik	35
Xotira	35
Baxshiyona	36

Bolalik	37
She'riyatga	38
Ko'zlar	38
O'git	39
Ilitjo	39
Ey vaqt	40
Yulduz	41
Yurt ishq'i	41
Navoiy bobonga	42
Qachon tug'iladi Navoiy, dunyo!	42
To'rtliklar	43

Adabiy-badiiy nashr

Gulandom TOG'AYEVA

MEN IZLAGAN KEMA

She'rlar

Muharrir: Adiba Hamro qizi

Badiiy muharrir: O'ktamjon Bo'ronov

Texnik muharrir: Muhiddin Hamroyev

Dizayner: Inoyat Zohidova

Musabihli: Dilshoda Avvalboyeva

Nashriyot litsenziyasi: AI № 221, 16.11.12.

Bosishga ruxsat etildi: 08.04.2016.

Bichimi: 84/108 1/16. Ofset bosma. "Times" garriturasi.

Shartli bosma tabog'i: 3,0. Nashriyot bosma tabog'i: 2,25.

Adadi: 1000 nusxa. Buyurtma: № 3-16.

Bahosi kelishilgan narxda.

Nashriyot manzili:

"Yurist-media markazi" nashriyoti,

Toshkent shahri, O'chopar ko'chasi, 82-uy

Tel.: 212-47-79, 230-04-74

E-mail: yurist_media@mail.ru

Bosmaxona manzili:

"Sirius-media" MChJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Bobur ko'chasi, 4-uy.